

qásiyetlerin belgileytuǵın taǵı bir jaǵday bar. Quwırshaq tınısh, uzaq waqıt tigilip qarap turıw yamasa kórinis ushın emes, bálkim pútkil tamashagóyler toparı tárepinen qabil etiletuǵın operativ háreketlerde qatnasıw ushın mólsherlengen. Solay eken, ol tamashagóydi bir waqıttıń ózinde tańlanıwǵa, yaǵnıy júdá qısqa waqıt ishinde, geyde bir demde ǵalabalıq reakciyaǵa sebep bolıw ushın jaratılǵan. Bul teatr quwırshaǵın sheksiz waqıt dawamında kórip shıǵılatuǵın barlıq súwretleytuǵın kórkem óner dóretpelerinen túpten ajuratıp turadı. Quwırshaqta zárúrli hám sheshiwshı hámme zat anıq bolıwı kerek hám súwret ushın ekinshi dárejeli,

áhmiyetsiz zat irkinish bolmawı kerek. Hár bir zat saylanǵan hám úlken bolıwı, tek háreket hám metaforalıq mánis, obraz ushın zárúr bolǵan negizlerdi qaldıradı.

Aktyor súwretshiden onıń kórkem ásbabı da texnikalıq qural bolıwın talap etedi. Solay eken, quwırshaq texnikalıq tárepten jetiliske, qolay, jeńil, aktyor shıdamlılıǵına boysınıwshı, baqlaǵısh járdemshi, dóretywshilik pikir hám sezimlerdiń barlıq túslerin jetkerip bere alatuǵın bolıwı kerek. Basqasha etip aytqanda, quwırshaq aktyor hám tamashagóy arasındaǵı tosiq emes, bálkim tıńlaǵısh tamashagóy ushın aktyorlıq kórkem óneriniń uzatıwshısı bolıwı kerek.

Paydalanılǵan ádebiyatlar

1. A.N.Sokolov. Teoriya stilya. "Iskusstvo" 1968.

REZYUME. Hozirgi waqıtta qo'g'irchoq teatri san'atining rivojlanishi bilan bir qatorda qo'g'irchoq aktyori san'atining ham ko'p jihatdan yakkalanib rivojlanishi, san'atning o'xshash yoki yangi yaratilgan yo'nalishlarida tabaqalanish kuzatilmoqda. Ba'zi hollarda qo'g'irchoq aktyorlari qo'g'irchoq teatrlariga xos bo'lmagan asarlar yaratadilar.

РЕЗЮМЕ. В настоящее время, наряду с развитием искусства кукольного театра, искусство кукольного актера во многом развивается изолированно, наблюдается дифференциация в смежных или вновь созданных направлениях искусства. В некоторых случаях кукольные актеры создают произведения, не свойственные кукольным театрам.

SUMMARY. В настоящее время наряду с развитием искусства кукольного театра в значительной степени наблюдается обособленное развитие искусства кукольного актёра, дифференциация в сходных или вновь создаваемых областях искусства. В ряде случаев кукольники создают произведения, не характерные для кукольных театров.

REJISSOR FAOLIYATIDA ASARNING XATTI-HARAKAT TAHLILI

Fayoz Turg'unboyev – o'qituvchi

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Tayanch so'zlar: rejissyor, xatti-harakat, aktyor, sahna, musiqa, drama, pyesa, asar, teatr, g'oya, metod, institut.

Ключевые слова: режиссер, поведение, актер, сцена, музыка, драма, пьеса, произведение, театр, идея, метод, институт.

Key words: director, actor, scene, music, drama, a play, work, theatr, the idea, method, institute.

Rejissyor – tashkilotchi, badiiy rahbar, jamoa tarbiyachisi muallim hamda yaxsh ijrochi aktyor bo'lishi kerak. Stanislavskiy sistemasi V.I.Nemirovich Danchenko ta'limotida rejissyor-pyesa talqinchisi, rejissyor-ko'zgu va tashkilotchi ekanligi ta'kidlangan. Rejissyor – tomosha yaratishda barcha ijodiy jarayonni tashkilotchisi, yagona oliy maqsadga, g'oyaga yo'naltirishda barcha jamoani yo'l boshchisi sifatida gavdalanadi. Rejissyorlik kasbini egallashga kirishgan talaba ko'plab ijodiy sohaga oid bilimlardan tashqari, tabiatan shu sohaga qobiliyati bo'lishi zarur. Rejissyorlik sohasiga

layoqati bo'lmagan talabani, uzluksiz mashqlar davomida ma'lum ko'nikmalarga o'rgatish sohaga oid bilimlarni qisman o'rganish mumkin. Ammo talabaning o'zida tug'ma professional layoqat bo'lmasa, hech qanday mshg'ulot va bilim unga yordam bera olmaydi.

Asarni sahnalashtirishda rejissyorlik talqiniga keladigan bo'lsak, birinchi galda mavzu va g'oya, oliy maqsad aniqlab olinishi muhim ekan. Rejissyor-pedagog Bahodir Nazarov bilan bo'lgan suhbatimizda atoqli rejissyor asar ustida ishlash borasida quyidagilarni aytadi: "Sahnalashtirish uchun asar olindi deylik. Asar

bilan dastlabki tanishuv chog'idayoq uning mavzusi aniq belgilanadi. Mavzular juda ko'p. Masalan, sevgi, nafrat, urush, qotillik, o'lim, yaxshilik, rashk, nomus, do'stlik, burch, odamiylik, adolatparvarlik, vatanparvarlik va h.k. Mavzu aniqlangach, dramaturg ushbu asar bilan nima demoqchi?, ya'ni, asar g'oyasi aniqlanadi. Ana undan so'ng rejissyor sahnalashtirmoqchi bo'lgan spektakli bilan nima demoqchi degan savolga javob izlash kerak bo'ladi. Har bir mavzu vaqt va makonda mujassamlashgan hayotning bir bo'lagi bo'lib, asarda ana shu hayot bo'lagi aniq bo'lishi zarur".

Teatr sahnasidagi har qanday namoyish etilgan spektaklning mavzu va g'oyasi, oliy maqsadi ezgulikni kuylash, targ'ib etishdan iborat bo'lib, uning asoslarini dramaturg yozgan asar, rejissor talqini, aktyor ijrosi tashkil etadi. Mavzu – bugungi kun uchun dolzarb, g'oya – yo'naltiruvchi, oliy maqsad – esa ta'sir etuvchi kuchlarga ega bo'lishi zarur. Xalqning ma'rifati va ma'naviyatini, inson qadrini va manfaatlarini, ezgulik timsolini tarannum etib, yaxshilikka chorlashda yuqorida sanab o'tilgan jihatlar muhim rol o'ynaydi.

G'oya nima? G'oya – ijodkor ifodalagan, aytmoqchi bo'lgan asosiy fikr. Asarda bosh g'oya va kichik-mayda g'oyachalar bo'lishi mumkin, lekin u yakunda yaxlit umumlashgan holda bir g'oyani ilgari surgan bo'ladi. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar"ida bosh g'oya vatanparvarlikka da'vat. Anton Pavlovich Chexovning "Uch opa-singil" asarida ham shunday. Opa-singil Prozovalar hayotiy sharoit tufayli Moskvaga intiladilar. Biroq, ularning ezgu intilishlari kundan-kunga turmush qiyinchiliklariga, dilni vayron qiladigan hodisalarga duch keladi. Bu asar ham o'sha davr hayotiga nafrat uyg'otadi. G'oya insonni butkul yaxshilikka undashi kerak. Izzat Sultonning "Imon" asarida haromxo'rlik, o'g'rilik qoralanadi. Professor Komilovning o'g'li Orif marhum olim Yusupovning qo'lyozma asarini o'g'irlab olib, uning bir qismini kandidatlik dissertatsiyasi sifatida yoqlagan. Bir so'z bilan aytganda inson bu darajada tuban emas, imonli bo'lishi kerakligi asar g'oyasidir.

Oliy maqsad nima? Oliy maqsad – asar orqali ta'sir etish bo'lib, o'quvchining yoki tomoshabinning dunyoqarashini o'zgartirish. Spektakldan so'ng tomoshabin avvalgi fikridan, qarashlaridan tubdan farq qiluvchi yangi dunyoqarashni o'zlashtirishi oliy maqsaddir. Sahnalashtirish va voqelikni qurishda xatti-harakat masalasiga chuqurroq yondashganimizda, asosan rejissorning sahnaviy asar xatti-harakat tahlilini o'tkaza olishi; sahna asarining

kompozitsiya jihatdan to'g'ri rejalashtirishi; asar mag'zini sahnada ochib bera olishi; aktyor bilan maqsad, berilgan shart-sharoitda, qahramonning uzluksiz xatti-harakat tizimidagi o'rnini aniqlay bilishi; turli janr va uslubga xos asarlar ustida ishlay olishi; sahnaviy bezak, musiqa, turli shovqinlar orqali sahna asarining janriga mos bo'lgan muhitini yaratishi; mizansahnalashtirish; yaxlit sahna asarini yarata olishi; barcha ishlab chiqarish bo'limlari hamda ijodiy jamoa ishini tashkillashtira bilishi shart ekanligi namoyon bo'ldi. "Qanday qilib" degan narsani kitobdan o'qib olish bilan hech narsaga erishib bo'lmaydi. Agar u amaliyotda sinovdan o'tkazilmas ekan, uning hech bir foydali tomoni bo'lmaydi. Bu yo'lda muvaffaqiyat va mag'lubiyatlar bo'lishidan cho'chimaslik kerakligi ravshanlashadi. Bo'lajak sahna ijodkorlari o'z mahoratlari bilan tomoshabinlarni ma'nan boyitadi, ruhini poklaydi, ko'nglini ko'taradi, ertangi kunga ishonch paydo qiladi. Tarbiyachining o'zi tarbiyalangan bo'lishi kerak deganlaridek, sohaning sir-asrorlarini yaxshi anglagan holda ish tutishlari hozirgi davr talabidir. Teatr san'ati "Taraqqiyot strategiyasi"da muhim o'rin tutadi. Milliy va umuminsoniy manfaatlariga xizmat qilish barobarida, ma'naviy ozuqa beradi. Shuning uchun ham sohaning ertangi umidi sifatida tarbiyalanayotgan yosh kadrlarning badiiy saviyasini oshirish, ularda kasbiy mahorat shakllantirish bugungi kundagi pedagoglarimizning oldida turgan eng muhim vazifa sanaladi. Bu yo'lda izlanib, hayotiy tajriba orqali amaliy o'quv jarayonlariga jahon aktyorlik maktablari talabiga mos ravishda yangi uslub, yangi yondashuvlarni kiritish dolzarb masaladir. Talaba-aktyor, talaba-rejissorlar bugungi kun tomoshabinining talabi va istaklaridan kelib chiqib, o'z mahoratlarini innovatsion uslublarda oshirib borishi maqsadga muvofiq. Shu yo'lda izlanayotgan barcha pedagoglarimizning maqsadi oliy bo'lib, har bir talabaga individual yondashgan holda uning kasbiy mahoratini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa kelajakda har bir tomoshabinning ongida milliy va umuminsoniy qadriyatlar, mehr-oqibat, vatanparvarlik, sadoqat tuyg'ularini uyg'otishi shubhasizdir.

Pyesa va rolning xatti-harakat tahlili sahnalashtiruvchi rejissor faoliyatidagi eng muhim omillardan hisoblanadi. Chunki, pyesani har tomonlama chuqur tahlil qilish – sahna asarining puxta kompozitsion qurilmasining asosidir. Tahlil sahna asarining g'oyaviy-badiiy qiymatini, yoritilishi lozim bo'lgan mavzuni hamda voqealar tizimini, harakatlarni aniq belgilashga xizmat qiladi. Sahnaviy asarning xatti-harakat tahlili ayni shu maqsadni ko'zlagan bo'lib, ijodkor shaxs

fikrini mujassamlashtiradi, inson qalbiga ta'sir etuvchi aniq maqsad va badiiy vositalarni tanlashga yordam beradi.

Tarbiyalanayotgan rejissyor va aktyor uchun his-tuyg'uli kurashlarga boyligi, asardan olingan parchaning ahamiyati, qahramonning xarakteri va o'zlashtirishdagi uslublarning qiziqiligi bilan ajralib turadi. Pedagogik ijodiy faoliyatning asosiy maqsad va vazifasi rejissorning asosiy quroli bo'lmish shaxsiy fuqarolik pozitsiyasiga, dunyoqarashiga bog'liq bo'lib, asar tahlili uslubiyati bilan bo'lg'usi ijodkorlarni qurollantirish. Va albatta, amaliy faoliyatni nazariy bilimlar bilan boyitib, mahoratiga asos solishdir.

Rejissor va aktyorlik yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar qanday bilimlarga ega bo'lishi kerakligi va ularni amalda qo'llay olishi lozimligi ko'rsatiladi. Masalan, aktyorning o'z ustida ishlash orqali erishish mumkin bo'lgan sifatlari – psixofizik xatti-harakat bajarish, sahnaviy erkinlik, ijodiy fikrlash, baholash, munosabat bildirish, partnyorlar bilan ishlash, his qilish, nutqiy xarakter topish, ta'sirchanlik kuchini oshirish jihatlariga e'tibor qaratilgan. Rejissor esa xatti-harakat tahlili to'g'risidagi bilim va uning rivojlanish jarayonini; teatrni insonga g'oyaviy, ma'naviy, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish vositalarini; spektakl yaxlitligining qonuniyatlarini; asar mavzusini aniqlay olishni; dramatik asarning hissiy va g'oyaviy ta'sir ko'rsatuvchi unsurlari hamda oliy maqsadini; pyesaning asosiy voqealarini aniqlay bilishlikni; asarni harakatga keltiruvchi asosiy qarama-qarshilik qanday kuchlar o'rtasida va qayerda sodir bo'lishligini aniqlay bilishi; pyesadagi voqealar tizimi orqali uzluksiz xatti-harakatni aniqlashtira olish; mayda voqealardan yaxlit voqelikni ko'ra olishi; spektaklning maromi va sur'atini belgilay olishi, ishtirokchilarning o'ziga xos bo'lgan tabiati, harakat chizig'ini belgilashi aks etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Usmonov R. Rejissura T:1997.
2. Qobilov H. Musiqali teatr rejissyorligi. T: 2021.
3. Abdullayeva M. Rejissura T: 2016.
4. Jo'ra Mahmud. Rejissura tarixi va nazariyasi T: 2020.
5. Umarov M., Yo'ldoshev T. Rejissyorlik va aktyorlik san'ati asoslari. T: 2016.
6. Tursunov T. Sahn va zamon. T: Yangi asr avlodi 2007.

REZYUME. Ushbu maqolada bo'lajak rejissyorlar bilan tanlangan asarning xatti-harakat tahlili ustida ishlash, talaba rejissyor kadrlarni tayyorlashda muhim jihat hamda metodlar haqida fikr va mulohazalar yuritiladi.

РЕЗЮМЕ. В данной статье изложены мысли и мнения о важных аспектах и методах работы по поведенческому анализу избранной работы с будущими режиссерами, подготовке студентов-режиссеров.

Sahnalashtirish va voqelikni qurishda xatti-harakat masalasiga chuqurroq yondashganimizda, asosan rejissorning sahnaviy asar xatti-harakat tahlilini o'tkaza olishi; sahna asarining kompozitsiya jihatdan to'g'ri rejalashtirishi; asar mag'zini sahnada ochib bera olishi; aktyor bilan maqsad, berilgan shart-sharoitda, qahramonning uzluksiz xatti-harakat tizimidagi o'rnini aniqlay bilishi; turli janr va uslubga xos asarlar ustida ishlay olishi; sahnaviy bezak, musiqa, turli shovqinlar orqali sahna asarining janriga mos bo'lgan muhitini yaratishi; mizansahnalashtirish; yaxlit sahna asarini yarata olishi; barcha ishlab chiqarish bo'limlari hamda ijodiy jamoa ishini tashkillashtira bilishi shart ekanligi namoyon bo'ldi. Bugungi kunda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti o'z ta'lim sifatini professorlar, san'at arboblari, xalq artistlari, xizmat ko'rsatgan artistlar va yosh malakali kadrlarning o'quv jarayoniga ham amaliy, ham ilmiy yondashuvdagi innovatsion uslublari bilan boyitib kelmoqda. Birgina "Musiqali teatr san'ati" kafedrasining o'zida Xalqaro "Ahmad Yassaviy hamda "Bobur" mukofotlari, "Mehnat shuhrati ordeni" sohibi, tajribali rejissyor Bahodir Nazarov, professorlar Rashid Usnatov, Ernazar Yarbekov, dotsentlar Sherzod Muhammadiyev, Habibullo Qobilov kabi ustoz-pedagoglar bo'lajak aktyor va rejissorlarga teatr san'atining sir-asrorlarini jahonning ilg'or metodlariga hamohang tarzda o'qitishmoqda.

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak rejissor va aktyor tayyorlashning bugungi kundagi o'rni muhim hisoblanib, unga dunyoning barcha teatr maktablari va ulardagi ta'limotlarni chuqur o'rgangan holda ta'lim jarayonini tashkil etish, innovatsion o'quv reja va uslublarni joriy etish orqali kelajakda iste'dodli, izlanuvchan ijodkorlarni tarbiyalash ko'zda tutiladi. Bunda pedagoglarimizning xizmati beqiyosdir.

SUMMARY. In this article, there are thoughts and opinions about the important aspects and methods of working with future directors on the behavioral analysis of the selected work, training student director personnel.

KINO HÁM DRAMATURGIYA

HUJJATLI FILMLARDA OVOZ REJISSYORLIGI: TEXNIKA, SAN'AT VA HAQIQATNI IFODALASH

Abdreymov Manas Bekpolatovich – *“Texnogen san’ati” kafedrasi mudiri*
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Nukus filiali

Tayanch so‘zlar: hujjatli film, ovoz rejissyorligi, atmosferik tovushlar, musiqaning roli, foley, dubbing, audiovizual san’at, montaj, ovoz effektlari, hissiy ta’sir.

Ключевые слова: документальное кино, звукорежиссура, атмосферные звуки, роль музыки, фоли, дубляж, аудиовизуальное искусство, монтаж, звуковые эффекты, эмоциональное воздействие.

Key words: documentary film, sound design, atmospheric sounds, role of music, foley, dubbing, audiovisual art, editing, sound effects, emotional impact.

Hujjatli film – bu hayotning o‘ziga xosligini, voqealarni va odamlarga bo‘lgan munosabatni ko‘rsatishga intiladigan, realistik va ko‘pincha dokumental materiallardan foydalanuvchi audiovizual san'at turi sifatida tanilgan. Ushbu filmning haqiqiy voqealar bilan chambarchas bog‘lanishi, tomoshabinga tasvirlangan hodisalar va holatlar haqida aniq tasavvur berish, odamlarni o‘zaro bog‘lash va tushunishni kuchaytirish uchun ovoznining roli muhimdir. Hujjatli filmlar ko‘pincha dramatik yoki ilmiy maqsadlarda yaratiladi va ular tasvirlangan voqealarni tomoshabinga eng to‘liq va aniq tarzda yetkazishga harakat qiladi. Ovoz rejissyorligi bu jarayonda faol ishtirok etadi, chunki ovozlarni nafaqat voqealarni aks ettirishda, balki filmning maqsadi va muallifning fikrini tomoshabinga etkazishda ham muhim vositadir.

Hujjatli filmlarda ovoz rejissyorligi, odatda, musiqa, atmosfera tovushlari va ovoz effektlaridan tashkil topgan ko‘p qirrali yondashuvni o‘z ichiga oladi. Ovoz rejissyorlari filmning badiiy tarkibiga qarab, tasvir va audio elementlarini uyg‘unlashtirishni maqsad qiladilar. Shu bilan birga, ovoz rejissyorligi ham texnik, ham badiiy bilimlarni o‘z ichiga oladi, chunki filmda aniq bir tasvirning yaratgan muhitini yoki hissiy holatini ovoz orqali tasvirlash kerak bo‘ladi. Filmning ovozli tarkibini yaratishda san'at va texnikaning uyg‘unligi yuqori darajadagi ijodkorlikni talab qiladi. [1-56]

Ovoz rejissyorligi hujjatli filmning hajmi va turiga qarab o‘zgaradi, shuning uchun har bir film uchun ovozni ishlatish va yaratish yondashuvi individual tarzda yaratiladi. Dastlabki ovozlarni va audiovizual vositalar orqali filmning

umumiy muhitini yaratish juda muhim. Hujjatli filmlarda ovoznining ahamiyati shundaki, ular orqali tomoshabin filmni faqat ko‘rish bilan cheklanmaydi, balki ularning his-tuyg‘ulari, tasavvurlari va fikrlari ham qo‘zg‘atiladi. Hujjatli filmlarda ovoz rejissyorligining roli ko‘plab texnik va estetik jihatlarni o‘z ichiga oladi. Ovoz rejissyorlari bir tomondan, tasvirlar bilan uyg‘un tovushlar yaratishda va filmga musiqiy elementlarni qo‘shishda yirik mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishadi. Biroq, boshqa tomondan, ular o‘zlarining ijodiy qarashlarini va estetik yondashuvlarini qo‘llab-quvvatlaydilar. Masalan, hujjatli filmda musiqaning roli juda katta, chunki musiqaning atmosferik effektlari tomoshabinlar uchun filmning aniq maqsadiga erishishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. [2-74].

Ovoz rejissyorligi san’ati ilim fanda juda qiyinchilik tug‘diradigan kasblardan biridir bu sohada san’at va texnikaning ijodiy topilmasi va boshqa har xil ijodiy yutuqlari haqida so‘z ketganda olimlarning ilmiy ishlaridan kelib chiqib chuqur tahlil qilishga ti’gri keladi. Ovoz rejissyorligi – bu faqatgina tovushlarni birlashtirish yoki tovush effektlarini yaratish emas, balki filmning badiiy shaklini yaratishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Hujjatli filmda ovoznining roli keng qamrovli bo‘lib, ovoz rejissyorlari filmning tasvirlari bilan uyg‘unlashtirgan tovushlarni yaratadilar. Bu tovushlar atrof-muhitning o‘ziga xosligini tasvirlashga yordam beradi, voqeani yanada ta’sirli va hayotiy qilishda muhim rol o‘ynaydi. Ovoz rejissyorlari hujjatli filmda yuqori sifatli, real va dramatik tovushlarni yaratish orqali tomoshabinlarga filmni to‘liq his qilish